



BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISINIG KASBIY FAOLIYATIDA PEDAGOGIK TEXNIKANING O'RNI

Nurmatova Madina Odiljon qizi.

Qo'qon DU katta o'qituvchi.

Turg'unova Umidaxon Muhammadyusuf qizi.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 404-guruh talabasi

Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik texnikasi o'rni yoritilgan.

Maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun pedagogik texnika o'qituvchining shunday qobiliyatiki, bu jarayonda o'qituvchi pedagogik jarayonning ta'sir kuchini taminlash maqsadida o'zining ichki va tashqi imkoniyatlarini xarakterga keltirish masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, jarayon, o'qituvchi, kasbiy faoliyat, pedagogik texnika.

Pedagogik texnika o'qituvchining shunday qobiliyatiki, bu jarayonda o'qituvchi pedagogik jarayonning ta'sir kuchini taminlash maqsadida o'zining ichki va tashqi imkoniyatlarini xarakterga keltiradi. Bu jarayonda o'qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik texnikasi o'rni beqiyos.

A.S.Makarenko oqituvchining (tarbiyachi) pedagogik texnikasi haqida quyidagi mulohazalarni bildirgan edi. "Yuz ifodalarini yaxshi egallamagan, o'z yuziga zarur ma'nolarni bera olmagan yoki o'z kayfiyatini ushlab tura olmaydigan kishi yaxshi tarbiyachi bo'lishi mumkin emas. Tarbiyachi tashkil qila bilishi, quvnoq, jahldor bo'la olishi lozim. Tarbiyachi o'zini shunday tutishi lozimki, uning har bir harakati tarbiyalasin. U ayni vaqtda nimani istashini va nimani istamasligini har doim bilishi kerak. Agar tarbiyachi buni bilmasa, u kimni tarbiyalashi mumkin?". Aynan o'qituvchining oquv darsligidagi ta'rifni o'z emotsiyalari, mimika, pantomimika, va aktyorlik mahorati natijasida o'quvchilarga yetkazishi axborotning ta'sirchanligini darslikdagiga nisbatan bir necha marotaba oshirib o'quvchilarning qabul qilish foizini va axborotning mazmundorligini oshirib beradi.

Pedagogik texnika o'qituvchining nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmuidir. Pedagogik texnikaning muhim jihatlari - bu avvalo o'qituvchining mahoratini belgilovchi kasbiy ko'nikmalari hisoblanadi, ya'ni iming savodli va ifodali so'zlay olishi, o'z fikr mulohazasini va bilimni tushunarli tildatasirchan bayon qiliishi, his-tuyg'usini jilovlay olishi, o'zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo'lishi, aniq imo-ishora, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so'zning cheksiz qudrati orqali o'quvchilar ongiga va tafakkuriga ta'sir o'tkazishi, hoziijavoblik, psixologik bilimlarga ega bo'lishi kabilardir.

O'qituvchining pedagogik texnikasi qanday ko'nikma va malakalardan iborat ekanligi, pedagogik texnika vositasida o'qituvchi ta'lim muassasalarida

ta‘lim-tarbiyaviy faoliyatni zamonaviy talablar asosida qanday tashkil qiliishi, o‘quvchilarga tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatishida qanday ahamiyatga ega ekanligi kabi muammolar hozirgi kungacha dunyo olimlarining diqqatini o‘iga jalb etib kelmoqda. O‘qituvchining tarbiyalanuvchi obyektlar oldida o‘z harakatlarini boshqarishida aktyorlik san‘atiga xos bo‘lgan xususiyatlari, ya‘ni mimik va pantomimik qobiliyatlari muhim rol o‘v naydi. Aktyor bir obrazni ma‘lum bir muddatda tayyorlab, bir yoki bir necha marotaba bir xil ko‘rinishda sahnada namoyish etsa, o‘qituvchi butun o‘quv yili davomida, har bir darsda yangi mavzuni o‘tilgan mavzular bilan bog‘lab, zamonaviy innovatsion usullar vositasida o‘quvchilar ongiga yetkazish uchun chuqur tayyorgarlik ko‘radi, sinf jamoasidagi o‘ziga xos pedagogik va psixologik muhitni, har bir o‘quvchining shaxsiy xususiyatlarini e‘tiborga olib pedagogik faoliyat ko‘rsatishga majbur. Bunday ulkan mas‘uliyatni yuqori saviyada bajarish uchun o‘qituvchidan yuksak pedagogik texnik tayyorgarlikka ega bo‘lish talab etiladi.

Hozirgi zamon o‘qituvchisi pedagogik mahorat tizimida pedagogik texnikaning rolini beqiyos deb biladi. Chunki u o‘qituvchiga o‘z g‘avdasini tuta bilishi (mimika, pantomimika), histuyg‘ularini (emotsiyasini) boshqara olishi, ishtiyoq, qobiliyatlar, nutq texnikasini egallashi va ulanii o‘quv faoliyatida, o‘qishdan tashqari ta‘lim va tarbiyaviy faoliyatlar jarayonida qo‘llash yo‘liarini tushuntiradi.

Ta‘lim – tarbiya san‘atida o‘zining pedagogik texnikasi, o‘zining “bir qolipdagi” mehnat madaniyati borki, ularni bilib olish zarur. Pedagogik kadrlarni tayyorlash va ularni malakasini oshirishning butun sistemasi ana shunga qaratilmog‘i lozim. Biroq, hali hech kim oliy o‘quv yurtida o‘qib yoki o‘qituvchilar malakasini oshirish kursini tamomlagandan keyin usta pedagog bo‘lib qolmagan. Pedagog mehnat ustalari maktabda vujudga keladi, bolalar bilan muomalada tarbiyalanadi.

Demak, xulosa qilinganda pedagogik texnika o‘qituvchi kasbiy faoliyatida shunday kasbiy va shaxsiy malakalar yig‘indisiki, u o‘qituvchining pedagogik faoliyatiga ta‘sir ko‘rsatishi, ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va boshqarish ishlarida asosiy yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2018 yil 14 avgustdagi “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son.Prezident qarori.
2. . B.Xodjayev-Umumiy pedagogika nazariyasi va adabiyoti. Toshkent 2017 yil, “Sano-standart” nashriyoti
3. A.Xoliqov-“Pedagogik mahorat”. Toshkent 2011 yil, “Iqtisod-moliya”.
4. Nurmatova, Madina. "History Of Origin And Social And Pedagogical Need Of Tutor's Activity." *International Bulletin of Applied Science and Technology* 3 (2023): 151-154.
5. Nurmatova, Madina Odiljon Qizi. "IS'XOQXON IBRATNING ILM VA MA'RIFAT

- SOXASIDAGI XIZMATLARI." *Academic research in educational sciences*
3.NUU Conference 2
(2022): 419-422.
6. НУРМАТОВА, МАДИНА ОДИЛЖОН КИЗИ. "Психолого-педагогические особенности детей старшего дошкольного возраста." *Молодежь и XXI век-2015*. 2015.
7. Нурматова, Мадина. "УЧИТЕЛЬ-РУКОВОДИТЕЛЬ ВОСПИТАНИЯ." *Актуальные научные исследования в современном мире* 8-2 (2018): 58-60.
8. Мадина, Нурматова. "ПРОИЗВЕДЕНИЕ" ОДОБ АС-САЛИХИН" *НАСТОЛЬНАЯ КНИГА СВЕЖЛИВОСТИ И ПРАВИЛ ПОВЕДЕНИЯ.* *Актуальные научные исследования в современном мире* 5-6 (2018): 53-55.